

MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xamidova Muborak Ubaydullayevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti "Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrası v.b. professor PhD

Usarova Madina Odil qizi

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 2 -kurs magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14855046>

Annotatsiya: Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir - birlariga ta'sir ko'ratadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi, til bu fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimidir. Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nuqsonining klinik ko'rinishlari, nuqson turiga qarab korreksion ish jarayonini tashkil etish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar, korreksion ish tizimi, terapiya, ertak terapiya, ertak, nutq kamchiligi, logopedik o'yin.

Аннотация: В процессе речевого общения люди обмениваются идеями и влияют друг на друга. Речевое общение осуществляется посредством языка, язык – это представляет собой систему фонетических, лексических и грамматических средств. Речь полная в этой статье клинические проявления недоразвитых детей в зависимости от вида порока поясняется организация процесса коррекционной работы.

Ключевые слова: Речь, дети с неразвитой речью, система коррекционной работы, терапия, сказкотерапия, сказка, речевой дефицит, логопедическая игра.

Abstract: In the process of speech communication, people exchange ideas and influence each other. Speech communication is carried out through language, language is a system of phonetic, lexical and grammatical tools. The speech is complete in this article clinical manifestations of underdeveloped children, depending on the type of defect the organization of the correctional work process is explained.

Key words: Speech, children with incompletely developed speech, corrective work system, therapy, fairy tale therapy, fairy tale, speech deficiency, logopedic game.

Nutq— tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Nutq- murakkab ruhiy faoliyat hisoblanadi.

Nutq – inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki aloqa o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni hisoblanadi. Bejizga so'zimnu nutqqa alohida ta'rif berishdan boshlamadim, sababi tezisimni nutq nuqsonlari hamda nutqning to'liq rivojlanmaganligiga bag'ishlayman. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi muammosini ilk bor nazariy jihatdan R.E.Levina asoslab bergan. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi deb, intellekti normada bo'lgan nutqning fonetik-fonematik, leksik-grammatik tomondan rivojlanmaganligiga aytiladi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda tovushlar talaffuzi va ularni eshitib farqlash u yoki bu darajada buzilgan bo'ladi, morfemalar sistemasini o'zlashtirish ko'nikmalari yaxshi egallanmaydi. Lug'at boyligi yosh normasidan ham miqdor ham sifat ko'rsatkichlari bo'yicha

orqada qoladi; bog'lanishli nutq yetarlicha rivojlanmaydi¹. (V.K.Vorobeva, B.M.Grinshpun, V.P.Gluxova, R.E.Levina, G.B.Filicheva, G.V.Chirkina).

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi bolalarda nutqiy patologiyaning tobora murakkab shakllari: alaliya, afaziya, shuningdek, rinolaliya, dizatriya, duduqlanish xollarda - qachonki bir paytning o'zida lug'at boyligi yetishmasligi, nutqning grammatik ko'rilishi va fonetik-fonematik rivojlanishida nuqsonlar aniqlanganida kuzatiladi. Bunday bolalarning nutqiy tajribasi cheklangan, til vositalari takomillashmagan bo'ladi. Nutqiy muloqotga ehtiyoj yetarlicha qondirilmaydi. Eng asosiy belgilardan biri nutqni ancha kech shakllanishi hisoblanadi; birinchi so'zlar 3-4 yoshda, ba'zan esa, 5 yoshda paydo bo'ladi. Nutqning grammatikasi buzilgan va fonetik tuzilishi aniq emas. Birinchi qarashda unga aytilgan gapni tushunish deyarli yaxshi hisoblanganida mazmunli (ekspressiv) nutqning ortda qolishi ancha aniq ko'rsatkich hisoblanadi. Bunday bolalarning nutqi tushunarli emas.

Nutqiy faollik yetarli emasligi kuzatiladi, yoshi ulg'ayib borgan sari unga maxsus ta'lim berilmasa, keskin pasayib ketadi. Biroq bolalar o'z nuqsoniga ancha tanqidiy qaraydilar. Nuqsonli nutqiy faoliyat bolalarda sensorli, intellektual va affektiv irodaviy sohalari shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Diqqat-e'tiborning yetarli darajada mustahkam emasligi, uning boshqarish imkoniyatlari cheklanganligi kuzatiladi. Bolalarda ma'noli, mantiqiy xotirasi nisbatan saqlanib qolgan bo'lsa ham, ularning verbal xotirasi pasaygan eslab qolish maxsuldorligi zararlangan bo'ladi, ular murakkab ko'rsatmalarni, topshiriqlarning ketma-ketlik tartibini va elementlarini esdan chiqarib qo'yadilar. Juda ham bo'sh bolalarda esga olish faolligi past bo'lishi, idrok etish faoliyatining rivojlanish imkoniyatlarini cheklanganligi bilan to'ldiriladi. Nutqiy buzilish va psixik rivojlanishning boshqa tomonlari o'rtasidagi bog'liqlik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqaradi². Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar normal rivojlangan bolalardan topshiriqni bajarishda masofa vaqt, tafakkur ko'rsatkichlarida ortda qoladilar, xarakatlar ketma-ketlik tartibini buzib, uni tashkil etuvchi qismlarni qoldirib ketadilar. Masalan: to'pni qo'ldan-qo'lga yumalatish, uni katta bo'lmagan masofadan uzatish, qo'lni almashtirib to'pni yerga urish, chap va ung oyog'ida sakrash, musiqa eshitib ritmik xarakatlar bajarish. Nonutqiy jarayonlarni to'g'ri baxolash nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar rivojlanishi qonuniyatlarini aniqlash va shu bilan birga ularning o'rnini to'ldirishi imkoniyatlarini aniqlash uchun zarurdir. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni shunga o'xshash - nutqiy rivojlanishi orqada qolgan bolalardan farq qilishi kerak.

Shuni nazarda tutish kerakki, Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda odatiy muddatlarda kundalik so'zlashni nutqini tushunish, atrof-muhitga bo'lgan hissiy tanlash munosabati rivojlanadi. Nutqiy va ruhiy rivojlanish o'rtasidagi aloqaning yo'qolishi diagnostik belgilardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin³. Bu belgi bunday bolalarning ruhiy rivojlanishi odatda nutqiy rivojlanishdan ko'ra ancha o'tib borishda namoyon bo'ladi. Ularni ajratib turadigan narsa nutqiy kamchiliklarga tanqidiy qarashlaridir. Nutqning boshlang'ich patologiyasi nutqiy

¹ Миронова С. А. Развитие речи дошкольников на логопедических занятиях. -Москва 1991.

² Межиговская М.Б., Скрипченко М.П. Логопедические занятия в специализированных детских садах - Т.1989.-23.с.

³ Филичева Т. Б. Дети с фонетико – фонематическим недоразвитием речи (Воспитание и обучения) Москва 1999.-34с.

intellekti me'yordagidek ishlashga halaqit qilib, ma'lum darajada saqlanib qolgan aqliy qobiliyatlari shakllanishini orqaga tortadi. Ammo so'zlashuv nutqi yuzaga kelish va xususan nutqiy qiyinchiliklar yo'qolib borishi bilan ularning intellektual rivojlanishi normaga yaqinlashadi. Bolaning individual siljishi tempi birlamchi nuqsonning birligi va uning ko'rinishi bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni buyumlarning shakli, katta-kichikligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu xossalarni to'g'ri idrok qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qanchalik to'g'ri xal qilinsa, bolalarning faqat aqliy tarbiyasigina emas, balki estetik, jismoniy va xatto ahloqiy tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligini R.E.Levina uch daraja bilan belgilaydi: nutqiy aloqa vositalarning umuman yo'q bo'lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlik elementlariga ega bo'lgan mukammal nutq buzilishigacha. Nutq to'liq rivojlanmaganlikning 1-darajasi nutqning bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir. 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug'at boyligi kambag'al, noaniq bo'ladi. Nutqiy tovushga taqlid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo'ladi. Narsa va hodisalarning farq qilmagan holda ifodalash, so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lishi xarakterli xususiyat hisoblanadi: "tu tu" mashina paravoz, samolyot, qayiq; "taq"- yiqildi, tushirib yubordi, sindirdi, buzdi. Bu bolalarning passiv lug'ati aktiv lug'atiga nisbatan ancha boyroq lekin nutqni tushunish pasaygan bo'ladi, ular ko'p so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. Tovushlar talaffuzida turg'unlik bo'lmaydi, tovushlar bir biri bilan almashtiriladi, fonematik o'quv buzilgan bo'ladi. Nutq to'liq rivojlanmaganligining bu darajasiga ega bo'lgan bolalar uchun tovushlar analizi bo'yicha berilgan topshiriqlar tushunarsiz bo'ladi.

Nutq to'liq rivojlanmaganlikning 2-darajasi dastlabki keng qo'llaniladigan odatdagi bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bolalar oddiy jumladan foydalana biladilar, ma'lum lug'at boyligiga ega bo'ladilar. Ular narsalar, hodisalar, alohida belgilar nomini ajrata oladilar.

Nutq to'liq rivojlanmaganligining 3-darajasi nutqda leksik grammatik va fonetik-fonematik jihatdan rivojlanmaganlik elementlari kuzatiladi. Bolalar nutqqa ega bo'lgan holda kishilar bilan aloqa bog'lay oladilar, lekin buni ota-ona ishtirokida, ularning muayyan tushuntirishlari yordamida bajaradilar. Bunday bolalar uchun erkin holda aloqada bo'lish juda qiyin. Tovushlarni talaffuz qilishda ularni bir-biridan ajrata olmaslik, tovushlar guruhini artikulyatsiya jihatdan osonroq bo'lgan tovushlarga almashtirish ba'zi hollarda tovushlarni buzib talaffuz qilish bu bolalar uchun xarakterlidir. Lug'at xam orqada qolgan bo'ladi, lug'at boyligi analizida leksik holatlarning o'ziga xosligi ko'rinadi.

Tavsiyalar:

- Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirish korreksion - pedagogik ishini bolalar uchun qiziqarli bo'lgan shakllarda (o'yin, o'quv-o'yin) olib borilish
- Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirish jarayonida logopedik ritmika vositalaridan keng foydalanish
- Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirishni faoliyat va muloqot mashqlardan boshlash.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.– T., 2017.– B.39.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston,
3. Sh.M. Mirziyoev [Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016.](#)
4. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика. – М., 2003.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni – T.:Sharq nashriyot – matbaa konserni, 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.– T., 2017.– B.39.
7. Sh.M. Mirziyoev [Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016.](#)
8. Логоритмика для дошкольников в играх и упражнениях. – М., 2005.